

## LEKSIKOLOGIYA BO'LIMINI O'RGATISHDA ZAMONAVIY METODLARNING AHAMIYATI

*Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi*

*Guliston davlat universiteti 3-kurs*

*Rashidova Saida Ravshanbek qizi*

*Guliston davlat universiteti 3-kurs*

**Tayanch soʻzlar:** Nutq, soʻz, leksik–sintaktik, soʻz birikmasi, tilshunoslik, predmet, sifat, leksikologiya, oʻquvchi, ona tili, koʻmakchi, modal soʻz

**Ключевые слова:** речь, слово, лексико-синтаксическое, словосочетание, лингвистика, предмет, качество, лексикология, студент, родной язык, вспомогательное, модальное слово.

**Keywords:** Speech, word, lexical-syntactic, phrase, linguistics, subject, quality, lexicology, student, native language, auxiliary, modal word

**Annotatsiya:** Maqolada leksikologiya boʻlimini oʻqitishda oʻquvchilarni lugʻatlar bilan ishlashi “Imlo lugʻati”, “Oʻzbek tili izohli lugʻati”dan foydalanish yoʻllarini haqida maʼlumotlar bor. Izohli lugʻatda soʻzlarning, xususan, koʻp maʼnoli soʻzlarning berilishini alohida tushuntirish olib borilgan.

**Аннотация:** В статье представлена информация о том, как работать со словарями при обучении лексикологии, как пользоваться «Орфографическим словарем», «Толковым словарем узбекского языка». В глоссарии конкретно объясняется значение слов, особенно во множественном числе.

**Resume:** The article provides information on how to work with dictionaries in the teaching of lexicology, how to use the "Spelling Dictionary", "Explanatory Dictionary of the Uzbek language". The glossary specifically explains the meaning of words, especially plurals.

Ilk maktabga kelgan yosh bolalarning nutqidagi soʻzlarga oʻqituvchi bor eʼtiborini qaratishi zarur. Ulardagi nutq boyligini tekshirishi hamda yanada boyitishga harakat qilishi kerak. Oʻquvchilarni ona tilida ravon soʻzlashini soʻzlarni xatosiz gapirishini doim nazorat qilishi kerak. Lugʻat boyligini oshirishga yordam beruvchi metodlardan, oʻyinlardan zamonaviy texnologiyadan foydalanishi zarur. Oʻquvchilar koʻp soʻz bilgani bilan uning maʼnosini bilishi ham kerak. Boshlangʻich sinflarda tilning rivojlanishi haqidagi masala maxsus oʻrganilmaydi. Tilga jamiyatning rivojlanishi bilan bogʻliq holda rivojlanadigan hodisa sifatida ilmiy qarashga zamin yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Tilning leksik tomoni boshqalariga qaraganda xarakatchan, tez rivojlanadigan boʻlgani uchun, til leksikasi misolida boshlangʻich sinf oʻquvchilarini saviyasiga mos ravishda jamiyatning rivojlanishi bilan bogʻliq holda

tilning ham rivojlanishi tushuniladi. Tilning leksik tarkibida yuz berayotgan o'zgarishlar yuzasidan o'qituvchi va o'quvchilarning kuzatishlari bolalarda dunyoni bilish haqidagi tasavvurlarini shakllantirishga mos material beradi.

Nutqimizning aniq, ravon, mantiqiy bo'lishida so'z-leksemasining o'rnini beqiyos. Uni o'quvchilarga o'rgatishning o'ziga xos prinsplari mavjud. -leksik-grammatik prinsp: nomidan ma'lumki so'zlarning leksik ma'nosi bilan grammatik ma'nosi qiyoslanadi. Bunda leksik ma'no nima, grammatik ma'no nima degan savolga javob tayyor bo'lish kerak. Leksik ma'no so'zlarning lug'aviy ma'nosi, ya'ni biror narsa, predmet, belgi, xususiyat kabilarni anglatgan ma'nosi bo'lsa, grammatik ma'no so'z (leksika)ning grammatika ixtiyoriga o'tgandan keyingi ma'nosi.

-kontekstli prinsp. Bu prinspga ko'ra so'z (leksema)ning ma'nosi kontekst (matn)da qaraladi. Kontekst so'zlarni boshqa ma'nolardan tozalaydi. So'zda bir necha ma'no bo'lishi mumkin. Lekin u matnda bitta ma'nosi bilan qatnashadi. Sintagmatik aloqa vositasini o'taydi (sintagma –bir yoki bir nechta so'zdan iborat sintagmatik intanatsion mazmuniy nutq birligi). Demak bu o'rinda so'z (leksema)ga nutq birligi sifatida qaraladi.

-leksik–sintaktik prinsp. Bunda ham so'zning nutq jarayonida bajaradigan vazifasi nazarda tutiladi, ya'ni so'z bilan so'z birikmasini qiyoslash nazarda tutiladi: qalam –qizil qalam. Qalam so'zi nutq sharoitiga qarab boshqa so'zlar bilan birikib so'z birikmasi hosil qiladi. So'z (leksema)ning ma'nosi yanada konkretlashmoqda.

So'zning bunday prinsplar asosida tushuntirilishi o'quvchilarga so'z mohiyatini, nutqdagi o'rnini yanada chuqurroq anglash imkoniyatini beradi.

Tilshunoslikning bu bo'limini o'qitishning asosiy maqsadi ham yuqoridagi tahlil asosida yuzaga chiqadi, ya'ni so'z va tushunchalarning o'zaro munosabati, so'zlarning ma'no tiplari, so'z ma'nolarining ifodalanish yo'llarini o'rgatishdir.

Har qanday bo'limni o'qitishda maqsad qilib uni o'quvchilarga o'rgatishning eng asosiy tomonlari olinsa ana shu maqsadni detallashtirilgan holda ro'yobga chiqarish uning vazifasini belgilaydi, ya'ni bu bo'limning asosiy vazifasi so'z ma'nolarining taraqqiyoti, ko'p ma'nolikning hosil bo'lishi, lug'at tarkibining grammatik qurilish bilan bog'liqligi, so'zning grammatika ixtiyoriga o'tgandan keyin o'zgarish sabablari, iboralar va ularning shakllanishini o'rganishdir.

### **Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlarni, iboralarni o'tish metodikasi.**

O'quvchilarga, avvalo, so'zning lug'aviy ma'nosi haqida tushuncha beriladi: so'zlarning biror predmet, belgi, harakat va boshqalarni anglatishi uning lug'aviy ma'nosi sanaladi. Lekin so'zlarning hammasi bir ma'noli yoki bir necha ma'noli bo'lmasligi ta'kidlanadi. Shu xususiyatlarga ko'ra so'zlar bir ma'noli va ko'p ma'noliga ajratiladi. Agarda so'zning anglatadigan ma'nosi birdan ortiq bo'lsa

ko'p ma'noli sanaladi. Buni tushuntirish uchun har bir so'zning biror lug'aviy ma'noga ega bo'lishi aytiladi: odam, bola, farzand, o'g'il, qiz so'zlari umuman insonga xos so'zlar bo'lsa-da, ular bir-biridan farqli, boshqa-boshqa ma'nolarni anglatadi. Shuning uchun ham ularning har birini alohida so'z deymiz. Ko'p ma'noli so'zlar bir necha ma'noni anglatasa-da, ular bir so'z sanaladi, chunki, birinchidan, bir shaklga ega, ikkinchidan, bosh –asosiy ma'nodan boshqa ma'nolari yuzaga kelgan. Masalan, ko'z so'zi anglatgan ma'nolar.

Birgina ma'no anglatadigan so'zlarni bir ma'noli so'zlar deb atalishi aytilib unga misollar keltiriladi: alfavit, urg'u, radius, diametr, zoologiya va boshqalar.

Leksikologiya bo'limini o'ta boshlagadanoq o'quvchilarni lug'atlar bilan ishlashini mashq qildiradi borish kerak. "Imlo lug'ati" , "O'zbek tili izohli lug'ati"dan foydalanish yo'llarini o'rgatish zarur. Izohli lug'atda so'zlarning, xususan, ko'p ma'noli so'zlarning berilishini alohida tushuntirish lozim. Shundan keyin ko'p ma'noli so'zlarning hosil bo'lishi sabablari tushuntiriladi, ya'ni so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari haqida ma'lumot beriladi: ko'chma ma'no asosida ko'p ma'nolilik yuzaga keladi. Ular bo'yicha mashqlar ishlatiladi. Bunda asosiy e'tibor so'zlarning ko'chma ma'nolarini aniqlashga qaratilishi zarur. So'z va uning ma'nosi bilan bevosita aloqador bo'lgan omonimlar, sinonimlar, antonimlar, paoronimlar, uyadosh so'zlar kabi hodisalarga ham o'quvchilar diqqati qaratilishi lozim. Bular orasida uyadosh so'zlar va ularni o'qitishga diqqatni qaratish zarur. Chunki uyadosh so'zlar nisbatan yangi tushuncha, shu bilan birga bir uyaga mansub so'zlarni aniqlash anchagina murakkablik qiladi. Bunda so'zlarning joylashishi umumiydan xususiyga qarab yo'naltirilgan bo'ladi. Masalan daraxt so'zining uyadoshlari umuman butagan boshqa so'zlarni qamrab oladi: ular uchun umumiy bo'lgan daraxt uya boshi sanaladi. Ulardan keyin avval mevali so'ng manzarali daraxtlar keltirilishi lozim. Xuddi shuningdek, "mevali daraxtlar" ham, "manzarali daraxtlar" ham alohida –alohida uyani hosil qilaveradi.

Leksikologiyaga oid materiallar iboralarni o'tish bilan yakunlanadi. Iboralar haqida tushuncha berilar ekan uning butunicha ko'chma ma'noda qo'llanilishi aytiladi. Bu qiyinchilik tug'dirmaydi chunki ko'chma ma'noda qo'llanilishi nima ekanligi o'quvchilarga ma'lum. Maktab darsligida gap bo'laklariga teng iboralarni o'tish maqsadga muvofiqdir: oq ko'ngil, suv quyganday, kapalagi uchdi.

Iboralar o'tilayotganda unga tavsif berib iboraning ma'nosi bir mustaqil so'zga teng kelishi; uning tarkibida birdan ortiq mustaqil so'zning bo'lishi; iboralardan o'rinli foydalanish nutqning ta'sirchanligini oshirishi haqida ma'lumot berish kerak. Shuni ham aytish kerakki iboralarni tushuntirishda ko'chma ma'nosini osongina tushunadigan, ularning yoshiga mos misollar tanlanishi zarur:

- Oyi nega qovog'ingizni silayapsiz?
- Ko'zim uchdi.

-Iya, joyida turibdi-ku? O'quvchilarga leksik –frazеologik mashqlar bajartirish mavzuni mustahkamlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.
3. 5. A.Azamov "O'quvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish" T., 2004 y.
4. N.Alavitdinova. «Ona tilim – jonu dilim» Boshlang'ich ta'lim jurnali.,2001y, 2-son.
5. M.Hamidova. «Til barcha fanlar kalitidir», Boshlang'ich ta'lim jurnali.,2003y,3-son.
6. Sh.Sariev. «Nutq sofligi – so`z boyligi», Boshlang'ich ta'lim jurnali, 2001 y, 1-son.
7. M.Mamatov. «Bilim va sezgirlik», Boshlang'ich ta'lim jurnali, 1995 y, 3-4-son.
8. Boshlang'ich sinflarning ona tili darsliklari va boshqalar.
9. J.G'.Yo`ldoshev, S.A. Usmonov. «Pedagogik texnologiya asoslari», T., O`qituvchi, 2004 y.